QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

JADID MATBUOTIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY MASALALARINING YORITILISHI

https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.117

Raximova Gavhar Abdulloyevna
Oriental universiteti Samarqand kampusi

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati matbuotida xotin-qizlar masalasining yoritilishi ilmiy tahlil etiladi. Jadid ziyolilarining matbuot orqali jamiyatni isloh qilish, xususan, ayollarning ta’lim olishi, ijtimoiy hayotdagi faolligi va huquqiy holatini yaxshilashga qaratilgan g‘oyalari ko‘rib chiqiladi. “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Sadoi Turkiston”, “Oyna” kabi nashrlarda chop etilgan maqolalar misolida jadidlarning xotin-qizlar masalasiga munosabati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar:jadidchilik, jadid matbuoti, xotin-qizlar masalasi, ayollar ta’limi, ma’rifatparvarlik, ijtimoiy ong, madaniy islohotlar, yangi usul maktablari, milliy uyg‘onish, ijtimoiy faollik, jadid ziyolilari.

Abstract. This article provides a scholarly analysis of the coverage of women’s issues in the press of the Jadid movement that emerged in Turkestan in the early twentieth century. It examines the ideas of Jadid intellectuals aimed at reforming society through the press, particularly their views on women’s education, increased participation in social life, and the improvement of women’s legal status. Using articles published in periodicals such as Taraqqiy, Khurshid, Sadoi Turkiston, and Oyna, the study reveals the Jadids’ attitudes toward the women’s question.

Keywords: Jadidism, Jadid press, women’s issues, women’s education, enlightenment, social consciousness, cultural reforms, new-method schools, national awakening, social activity, Jadid intellectuals.

Аннотатсия.В данной стате проводится научный анализ освещения женского вопроса в печати джадидского движения, возникшего в Туркестане в начале XX века. Рассматриваются идеи джадидской интеллигенсии, направленные на реформирование общества посредством печати, в частности на расширение доступа женщин к образованию, повышение их сотсиалной активности и улучшение правового положения. На примере статей, опубликованных в таких изданиях, как «Тараккий», «Хуршид», «Садои Туркистон», «Ойна», раскрывается отношение джадидов к женскому вопросу.

Ключевые слова: джадидизм, джадидская пресса, женский вопрос, образование женщин, просветителство, общественное сознание, культурные реформы, новометодные школы, натсионалное пробуждение, социалная активност, джадидская интеллигенция.

Kirish.XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish jarayonining muhim va murakkab bosqichi bo‘ldi. Shunday tarixiy sharoitda maydonga chiqqan jadidlar jamiyatni yangilash va taraqqiyotga olib chiqishning asosiy omili sifatida ma’rifat va ta’lim masalasini ilgari surdilar. Jadidchilik harakati vakillari millat ravnaqi avvalo inson ongini o‘zgartirish, zamonaviy bilimlarni joriy etish bilan chambarchas bog‘liq ekanini chuqur angladilar. Bu jarayonda matbuot muhim mafkuraviy va tashkiliy vosita sifatida xizmat qildi. Jadid nashrlari orqali ijtimoiy muammolar ochiq muhokama qilinib, xalqni yangicha tafakkurga chorlash maqsad qilindi. Ayniqsa, jamiyatda uzoq yillar davomida e’tibordan chetda qolgan xotin-qizlar masalasi jadid matbuotida dolzarb muammolardan biri sifatida ko‘tarildi.

Jadid ziyolilari ayollarning savodsizligi, huquqsizligi va ijtimoiy hayotdan chetda qolishini jamiyat taraqqiyotiga to‘siq deb baholagan edi. Ularning fikricha, xotin-qizlar ta’lim olmas ekan, millatning ma’naviy va intellektual rivoji mumkin emas edi. Shu bois jadidlar ayollarni ma’rifatli qilish, ularni jamiyatning faol a’zosi sifatida shakllantirish g‘oyasini ilgari surib, bu masalani umumxalq muammosi darajasiga ko‘tardilar. Jadidchilik harakatida xotin-qizlar masalasining matbuot orqali yoritilishi nafaqat ijtimoiy tenglik g‘oyalarining targ‘ibi, balki milliy ong va madaniy islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur masalani ilmiy jihatdan o‘rganish jadidchilik harakatining mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga hamda o‘zbek jamiyatida xotin-qizlar mavqeining tarixiy ildizlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Jadid matbuoti, avvalo, xalqni uyg‘otish, ijtimoiy ongni yangilash va jamiyatni zamonaviy bilimlar sari yetaklash vazifasini bajardi. Jadid nashrlari orqali milliy taraqqiyot yo‘lidagi muammolar ochiq muhokama qilinib, ma’rifat va ta’lim jamiyatni isloh qilishning asosiy omili sifatida targ‘ib etildi. Ushbu jarayonda xotin-qizlar masalasi alohida e’tibor markaziga chiqarildi hamda jamiyat rivojining muhim mezoni sifatida baholandi. Jadid ziyolilari jamiyat taraqqiyoti ayollarning ma’rifatli, ongli va ijtimoiy jihatdan faol bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq ekanini qat’iy ta’kidlagan edi. Ularning fikricha, xotin-qizlarning savodsizligi nafaqat ayolning shaxsiy hayotiga, balki oilaning tarbiyasiga, kelajak avlodning dunyoqarashiga va, pirovardida, millatning umumiy rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatardi. Shu sababli jadid matbuotida ayollar ta’limi masalasi muhim ijtimoiy muammo sifatida keng yoritilgan.

Matbuot sahifalarida xotin-qizlarning ta’lim olishi faqat oilaviy doiradagi masala emas, balki butun millatning kelajagini belgilovchi strategik omil sifatida talqin qilindi. Jadid mualliflari ayollar savodxonligini oshirish orqali sog‘lom, ma’rifatli va vatanparvar avlodni

tarbiyalash mumkinligini asoslab berdilar. Shu tariqa jadid matbuoti xotin-qizlar masalasini jamiyatni modernizatsiya qilish va milliy ongni yuksaltirish yo‘lidagi muhim g‘oyaviy yo‘nalishlardan biri darajasiga ko‘tardi.

Jadid matbuoti XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida milliy uyg‘onish g‘oyalarini yoyish, xalqni ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan faollikka chorlashda muhim mafkuraviy minbar vazifasini bajardi. Jadid ziyolilari tomonidan nashr etilgan “Taraqqiy”, “Sadoyi Turkiston”, “Oyina” kabi gazeta va jurnallar sahifalarida jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar tizimli ravishda yoritildi. Ushbu nashrlarda xotin-qizlar masalasi alohida e’tibor markazida bo‘lib, u jamiyatni isloh qilishning muhim sharti sifatida talqin qilindi.

Xususan, “Taraqqiy” gazetasi sahifalarida xotin-qizlarning savodsizligi va ularning ta’limdan chetda qolishi jamiyatning umumiy taraqqiyotiga jiddiy to‘sqinlik qiluvchi omil sifatida tanqid qilindi. Gazeta mualliflari ayollarning ilmli bo‘lishi, farzand tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ta’kidlab, ayollar ta’limini millat kelajagi bilan bevosita bog‘ladilar. Bu hol jadidlar dunyoqarashida ayol masalasi tor oilaviy muammo emas, balki umumijtimoiy va milliy ahamiyatga ega masala sifatida qaralganini ko‘rsatadi.

Muhokama

“Sadoyi Turkiston” gazetasi esa xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish, ularni zamonaviy bilimlarga jalb etish g‘oyalarini targ‘ib qildi. Nashr sahifalarida ayollar uchun maktablar ochish, qizlarni o‘qitish zarurati haqida fikrlar ilgari surilib, jamiyatdagi eskicha qarashlar tanqid ostiga olindi. Jadid ziyolilari ayollarning huquqiy va ma’naviy jihatdan cheklangan holatini jamiyatning orqada qolish sabablaridan biri sifatida ko‘rsatdilar [1].

Behbudiy “Oyina” sahifalarida ayollar ta’limini jamiyat taraqqiyotining ikkilamchi masalasi emas, balki millat kelajagini belgilovchi strategik omil sifatida baholaydi. U ayolni oilaning ma’naviy markazi deb hisoblab, onaning savodli bo‘lishi farzand tarbiyasiga, demakki, kelajak avlodning ma’naviy va intellektual darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini asoslab beradi. Behbudiy nazarida, ma’rifatsiz ayol tarbiyalagan avloddan taraqqiy etgan jamiyat vujudga kelishi mumkin emas.

“Oyina” jurnali esa jadid matbuotida xotin-qizlar masalasini kengroq ma’naviy-ma’rifiy kontekstda yoritgan nashrlardan biri sifatida ayolning jamiyatdagi o‘rni, uning ta’lim olishi va ma’naviy kamoloti masalalari chuqur tahlil qilindi. “Oyina” mualliflari ayollarni ma’rifatli qilish orqali jamiyatda ijtimoiy ong va madaniyatni yuksaltirish mumkinligini asoslab berdilar. Bu nashr orqali jadidlar xotin-qizlar masalasini milliy uyg‘onish va modernizatsiya jarayonining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi.

Shu tariqa, jadid matbuoti sahifalarida xotin-qizlar ta’limi va ijtimoiy faolligi masalasi nafaqat dolzarb ijtimoiy muammo sifatida, balki millat taqdirini belgilovchi strategik masala sifatida ko‘tarildi. Jadid nashrlarida ilgari surilgan bu g‘oyalar keyingi davrlarda xotin-

qizlarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilgan muhim tarixiy-ma’naviy meros sifatida baholanadi.

Jadidchilik matbuotida xotin-qizlar ta’limi masalasi jamiyatni isloh etishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida talqin qilindi. “Taraqqiy”, “Sadoi Turkiston”, “Oyna” kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalarda qizlar maktablarini tashkil etish, ayollarning savodxonligini oshirish va ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish zarurati muntazam ravishda ko‘tarib chiqildi. Jadid mualliflari ayollarning savodsiz holda qolishi jamiyatning umumiy taraqqiyotiga jiddiy to‘siq bo‘layotganini ta’kidlab, bu holatni diniy aqidalar yoki milliy an’analar bilan emas, balki uzoq yillar davomida shakllangan jaholat va ijtimoiy befarqlik bilan izohlashga harakat qildilar [2: 120-122].

Jadid matbuotida qizlar ta’limiga qarshi bo‘lgan qarashlar tanqidiy ruhda tahlil qilinib, islom dini ilm olishni erkak va ayol uchun birdek farz deb bilishi dalillar bilan asoslab berildi. Bu orqali jadidlar jamiyatda keng tarqalgan noto‘g‘ri tasavvurlarni bartaraf etish va ayollar ta’limiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishni maqsad qilganlar. Ayniqsa, “Oyna” jurnali sahifalarida ayollarning ilmli bo‘lishi oilaviy muhitni sog‘lomlashtirishi, farzand tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi va kelajak avlodning ma’naviy yetuk bo‘lib voyaga yetishida hal qiluvchi omil ekanligi ilmiy-mantiqiy asoslarda yoritildi.

Shuningdek, jadid mualliflari ayolni faqat uy-ro‘zg‘or ishlari bilan cheklash jamiyatni rivojlanishdan ortda qoldirishini ta’kidlab, ayollarning boshlang‘ich ta’limdan tashqari dunyoviy fanlardan ham xabardor bo‘lishini zarur deb bildilar. Qizlar maktablarini ochish masalasi matbuotda ijtimoiy ehtiyoj sifatida ko‘rsatilib, bunday maktablar jamiyat ma’naviy yuksalishining muhim poydevori sifatida baholandi. Jadidlar nazarida, ma’rifatli ayol ma’rifatli oila, ma’rifatli oila esa taraqqiy etgan jamiyatni vujudga keltiruvchi asosiy kuch hisoblangan.

Jadidlar xotin-qizlarning ilm olishlari kerakligi haqidagi qarashlarini targ‘ibot qilish bilan cheklanib qolmadilar. Balki o‘zlari yangi usul maktablarida qizlarni o‘qitish bo‘yicha dastlabki qadamlarni tashladilar. Shunday maktablardan biri Abduqodir Shakuriy maktabi bo‘lib, qizlar uchun ham sinflar tashkil etilgan. Bunday maktablar Turkistonning boshqa shaharlarida ham ochila boshlagan. Toshkentdagi Eshonxo‘ja Xonxo‘jaev yangi usul maktabida 3 ta qiz, Sobir Rahimovning maktabida 15 ta qiz o‘qigan. Qo‘qon shahrining G‘alchasoy mahallasida Muhammadjon Xoliqiy 1913 yilda qizlar maktabi tashkil qilgan. Abdulla Avloniy maktabida ham qizlar o‘g‘il bolalar bilan yonma-yon o‘tirib, tahsil olgan [3: 37].

Turkiston jadidlari ayollarning bilim olishlari va jamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida o‘zlariga munosib ish bilan shug‘ullanishlari uchun imkoniyatlar yaratishni o‘z oilalaridan boshlaydilar. Jumladan, samarqandlik maktabdor Abduqodir Shakuriy qizlar uchun tashkil etgan yangi usul maktabida xotini Roziyaxonim muallimlik qilgan bo‘lsa, Abdurauf Fitrat xonadonidagi adabiy va ma’rifiy muhit singlisi Mahbuba Rahim qizining shoira bo‘lib

yetishishini ta’minlagan. Qo‘qonlik jadid Muhammadjon Xoliqiyning singlisi Soliyaxon Abduxoliq qizi esa akasining maktabida muallimalik qilgan.

Turkistonlik ziyoli ayollarning ko‘zga ko‘ringan yorqin vakilalaridan biri, jadid shoirasi Nozimaxonim (1870-1924) bo‘lib, o‘z davrining madaniyatli, ilg‘or qarashli ayoli sanalgan. Nozimaxonim – erkparvarlik g‘oyalarining targ‘ibotchisi edi. Bu hol uning dastlabki maqola va she’rlaridayoq aniq ko‘rinadi. Uning 1904 yilda “Turkiston viloyatining gazeti”da bosilgan maqolalaridan biri “Insonga qancha erk darkor?” deb nomlangan edi. So‘ng ketma-ket mahalliy matbuot sahifalarida “Xotinlar huquqiga oid”, “Ilm va maorif borasida bir-ikki so‘z” kabi maqolalari chop etilgan. Maqolalar mazmuni, ruhi bilan Turkistonda ozodlik g‘oyalarining yoyilishi, xotin-qizlar o‘rtasida demokratik intilishning kuchayishiga xizmat qilgan [4].

Tadqiqotchi S.To‘ychiyeva mazkur masalada Is’hoqxon Ibratning “Tarixi madaniyat” asarida qizlarni o‘qitish borasidasidagi “Ammoki qizlar maktabig‘a kelsak, bu qiyinroq ko‘rinadur. Xalqni vahshiyot va ota-onalar qizlarini ehtiyot qilishi, odamg‘a, bir yerga yubormasligi, xalqni ilm qudratini bilmagani, xusus, xotunlarda taassufga g‘arq bo‘lub, bular bu taassufni yo‘qotishga ellik yillar kerak bo‘lishi ko‘runadur. Munga ham yo‘llar tofsa bo‘lurki, otunbibilarni erlari targ‘ib qilsalar, muallimalarda bir-ikki oylar yozuv va hisoblarni bilib olub, andin so‘ng o‘zlarini mahallasiga otunbibilardan muallima qilib, oncha-muncha oylik berib tursalar. Bularga vaqti-vaqti ila katta muallima tefasidan qarab tursa, besh-o‘n yillar ichinda har qishloqda besh-o‘n muallima tayyor bo‘lishini umid qilsa bo‘lur” ta’kidlarini tahlil qiladi [5].

Jadid maktablarida ta’lim olgan ayollar o‘zbek xotin-qizlarining ahvoli haqida qayg‘urganlar. 1906 yilda qo‘qonlik Tojiyaxon birinchi turk tili ayollar jurnaliga o‘zbek ayollari nomidan xat yozib, turkistonlik muslimalarning ahvolidan shikoyat qilgan: “Hammaga ayon bo‘lsa kerak: bugunda Rossiyada erkinlik, huquqlar, o‘sish va islohotlarga katta ahamiyat berilyapti. Musulmon ayollari ham o‘ziga xos haftalik nashrga ega va ular o‘z fikr-mulohazalari, savollari va takliflarini yozib yuborishga qodirligi ma’lum. Bunga faqat barakallo deymiz! Ammo biz Rossiya markazida faoliyat ko‘rsatayotgan musulmon ayollariga minnatdor holda bu yerda o‘z vazifalarimizni ayni darajada bajara olishga imkonimiz yo‘qligidan afsusdamiz. Boshqalar astoydil harakat qilarkan, biz Sartiya musulmon ayollari ko‘p narsadan bexabar, hamon uyqudamiz. Ro‘znomaning faqat bir necha satrlarida biz Sartiya musulmon ayollarining Qirim va Qozon ayollariga nisbatan o‘z huquqlarimiz haqida bilimga ega emasligimiz haqida yozilsaydi! Agar bizning ahvolimiz haqida bayon qilinsa, kelajagimiz islohotlar orqali yaxshilanishi mumkin va biz o‘z huquqlarimizga ega bo‘lardik... Biz hammamiz ilm va ta’limga muhtojmiz! Hozir bilim olmasak, kelajakda ham buning iloji bo‘lmaydi. Faqat yuzdan bir musulmon ayoli yozish va o‘qishni bilishini ta’kidlash lozim... Biz o‘z farzandlarimizni o‘zimiz kabi ilmsiz qilib tarbiyalashni istamaymiz. Biz farzandlarimiz uchun qizlar maktabi ochishga urinayotgan no‘g‘ay o‘qituvchilariga yordam qila olmayapmiz. Bizning ilm olishga bo‘lgan urinishlarimiz bizga yo‘l ochib bermay, qiyinchilik

tug‘dirib, dong qotib qolganimiz tan olinishi zarur. Agar shu yo‘lda davom etadigan bo‘lsak, bir kun biz musulmon ayollarining nomi tarix sahifalarida nafrat bilan tilga olinishi tayin” [5].

Xulosa.XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati matbuoti jamiyatni isloh qilishda muhim mafkuraviy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadid matbuotida xotin-qizlar masalasi ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas omili sifatida talqin etilgan. Jadid ziyolilari ayollarning ta’lim olishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi va huquqiy mavqeini mustahkamlashni jamiyatning umumiy rivoji bilan bevosita bog‘laganlar. “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Sadoi Turkiston”, “Oyna” kabi nashrlarda chop etilgan maqolalar tahlili jadidlarning xotin-qizlar masalasiga zamonaviy, ma’rifatparvarlik ruhida yondashganini ko‘rsatadi. Ular ayollarning savodsizligi va ijtimoiy cheklanganligini jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi omil sifatida baholab, yangi usul maktablari orqali ayollar ta’limini rivojlantirish zarurligini targ‘ib qilganlar. Shuningdek, jadid matbuotida ayollarning oiladagi va jamiyatdagi o‘rni, ularning ma’naviy va madaniy kamoloti masalalari keng yoritilgan. Jadid matbuoti xotin-qizlar ijtimoiy masalasini ko‘tarish orqali milliy uyg‘onish jarayoniga muhim hissa qo‘shgan. Jadidlarning bu boradagi g‘oyalari nafaqat o‘z davri uchun dolzarb bo‘lgan, balki bugungi kunda ham gender tengligi, ayollar ta’limi va ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalalarini anglashda muhim ilmiy-manbaviy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. *Музаффарзода Р. Янги йилдан эски тилаклар // Садои Туркистон. 1914 йил 2 январь)*

2. Мингнаров А. Маданий жараёнлар ва таълим масалаларининг Туркистон миллий матбуотида ёритилиши. Жадид маърифатпарварларинингмиллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва унинг Миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти. Республика илмий-амалий анжумани. – Тошкент. 2016. Б. 120-122.

3. *Авлоний А. Танланган асарлар. 2 жилдлик. II жилд. Тошкент, “Маънавият”, 1998. 37-бет*

4. Жамолова Д.М. Жадид боболаримизнинг ибратли ҳаёт йўли, ижтимоий-сиёсий фаолияти, илмий ва маънавий мероси бор // ttps://uza.uz/uz/posts/jadid-bobolarimizning-ibratli-hayot-yoli.

5. Тўйчиева С. Аёл саводхон бўлса // Тафаккур журнали. №1. 2024. https://oyina.uz/kiril/article/2735.

6. Беҳбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият. 1999.